



LOYIHALARGA INNOVATSIYALARNI JALB ETISH JARAYONLARI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası mudiri

Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail: nilufarxod1yeva@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15393078>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- May 2025 yil

Ma'qullandi: 10- May 2025 yil

Nashr qilindi: 13- May 2025 yil

KEY WORDS

Loyiha, innovatsiya, loyiha jarayoni, kommunikatsiya, bosqich, integratsiya, boshqarish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada innovatsiya jarayonining turli bosqichlari, shu jumladan yangi g'oyalar yaratish, integratsiya qilish va natijalarni baholash kabi aspektlar ko'rib chiqiladi. Loyihalarda innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tashkilotlar va jamoalar o'rtasida samarali kommunikatsiya, o'zgarishlarga moslashish va risklarni boshqarish muhimdir. Maqola innovatsiyalarni loyihalarga joriy etish jarayonlarini yanada chuqurroq o'rganish va samarali metodlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Innovatsiyalarni loyihalarga jalb etish - bu yangi g'oyalar, texnologiyalar va jarayonlarni amalga oshirish va rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Bugungi kunda innovatsiya tushunchasi har tomonlama ommalashgan va hayotimizning bir qismiga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu jarayonlar orqali tashkilotlar, kompaniyalar yoki davlat sektorlari o'z faoliyatlarini samarali va raqobatbardosh qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Innovatsiyalarni loyihalarga jalb etish nafaqat yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, balki mavjud tizimlarni takomillashtirish, samaradorlikni oshirish va bozorda o'z o'rnini mustahkamlashga qaratilib boriladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Innovatsiya vazirligi 2017-2021-yillarda Ozbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga asosan, Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi № PF-5264-son «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni hamda 2017-yil 30- noyabrdagi № PQ-3416-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashqil etish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq tashqil etildi. Vazirlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № PQ-3899-son «Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiya qilish tizimi samaradorligini oshirishga doir choratadbirlar to'g'risida»gi, № PQ-3682-son «Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, № PQ-3683-son «Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, № PQ-3698-son «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi

hamda № PQ-3855-son «Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib boradi. O'tgan vaqt davomida vazirlik faoliyati innovatsion goyalar, ishlanmalar va texnologiyalar negizida iqtisodiyotning barcha tarmoq va ijtimoiy sohalarini jadal innovatsion rivojlantirishni taminlashga qaratildi. Jumladan, innovatsion g'oya va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ularning yanada rivojlanishini taminlovchi normativ huquqiy bazani yaratish doirasida Ozbekiston Respublikasi Prezidentining qaror, farmon va idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari tasdiqlandi.

Innovatsiyani rivojlantirish va hayotimizning bir qismiga aylantishga hissa qo'shgan xorijiy olimlarimiz diqqatga sazovordirlar. Jumladan:

➤ Everett Rogers - "Innovatsiyalarning tarqalishi" haqidagi asarida innovatsiya va uning qabul qilinishi jarayonlarini o'rganadi. Uning "Diffusion of Innovations" modeli hozirgi kunda keng qo'llanilmoqda[1].

➤ Peter Drucker - Biznes va menejment sohasida innovatsiya va yaratuvchanlikni muhim xususiyatlar sifatida ta'kidlagan.

➤ Henry Chesbrough - "Ochiq innovatsiyalar" (Open Innovation) kontsepsiyasini rivojlantirgan, bu innovatsiyalarga bo'lgan yondashuvni kengaytiradi.

➤ Michael Porter - Raqobatbardoshlik va strategik boshqaruv sohasidagi asarlari bilan innovatsiyalarni qanday qilib tashkilotlarni mustahkamlash va ularning raqobatbardosh ustunligini oshirishga ta'sirini ko'rsatadi[2]. Bu olimlar innovatsiyalarni o'rganish va rivojlantirishda katta hissa qo'shganlar. Ularning g'oyalari hozirgi kunda ham ilmiy va amaliy ishlarda keng qo'llaniladi

Metodologik va natijalar qismi

Innovatsiyalar hozirgi kunda hayotimizning bir qismini tashkil qiladi. Yangiliksiz kelajak yo'q. shunday ekan innovatsiya bu – davr talabi hisoblanadi. Innovatsiyalarni loyihalarga jalb etishning eng asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

✓ Raqobatbardoshlikni oshirish: Innovatsiyalar kompaniyaga yangi va yanada samarali mahsulotlarni taqdim etish imkonini beradi. Bu esa uning bozordagi o'rnini mustahkamlaydi va raqobatchilardan ajralib turish imkonini yaratadi.

✓ Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish: Yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida ishlab chiqarish jarayonlari takomillashtirilishi mumkin, bu esa xarajatlarni kamaytirishga va rentabellikni oshirishga olib keladi.

✓ Yangi bozorlarga chiqish: Innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlar yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa kompaniyaning global miqyosda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

▪ Innovatsiyalarni loyihalarga jalb etish jarayoni odatda bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi:

▪ G'oyalarni yaratish va tanlash: Loyihaga innovatsiya kiritishdan oldin, yangi g'oyalarni yaratish va ularni baholash kerak. Bu jarayon odatda brainstorming (miya xushlamasi) yoki innovatsion ishchi guruhlar yordamida amalga oshiriladi.

▪ Texnologiyalarni tadqiq qilish va tanlash: Yangi texnologiyalarni izlash va ularni loyihaga mos ravishda tanlash, innovatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim bosqichdir.

▪ Innovatsion strategiyani ishlab chiqish: Loyihalarga innovatsiyalarni jalb etish uchun aniq strategiya ishlab chiqish zarur. Bu strategiya loyihani amalga oshirishda qo'llaniladigan texnologiyalarni, jarayonlarni, resurslarni va bozorni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

▪ Tajriba sinovlari va prototiplar yaratish: Innovatsiyalarni amaliyotda sinab ko'rish, prototiplarni yaratish va sinovdan o'tkazish kerak. Bu jarayon mahsulot yoki xizmatning bozorga chiqarilishidan oldin uning imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi.

▪ Kommerchlashtirish va marketing: Innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayoni marketing strategiyasini ishlab chiqishni, maqsadli auditoriyani aniqlashni va mahsulotni bozorga chiqarishni o'z ichiga oladi. Yangi mahsulot yoki xizmatning muvaffaqiyatli sotilishi uchun marketing alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirib, yangi ish o'rinlarini yaratadi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Yangi texnologiyalar ishlab chiqilganda, resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ladi va bu ish jarayonlarini yengillashtiradi. Kompyuterlar va mobil telefonlardagi innovatsiyalar orqali, odamlar o'zaro aloqa va axborot olish jarayonlarini yanada osonlashtirdi. Shuningdek, ta'lim sohasidagi yangiliklar talabalar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Innovatsion yondashuvlar kompaniyalarni raqobatbardosh qilishda yordam beradi. Har qanday bozor sharoitida raqobatlashish uchun yangi g'oyalar va mahsulotlar zarur. Bu esa jahon iqtisodiyotida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini taqdim etadi. Hayot sifatini oshirishda innovatsiyalarning roli juda muhimdir. Sog'liqni saqlash sohasidagi yangiliklar, masalan, yangi dori vositalari, bemorlar uchun hayotni yengillashtiradi. Yana bir muhim jihat, ekologik muammolarni hal qilishda innovatsiyalar yordam beradi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari global isitish muammosiga yechim bo'la oladi.

• Innovatsiyalarni Loyihalarga Jalb Etishning Turlariga Qarab Yondashuvlar

Innovatsiyalarni jalb etishning bir nechta turli yondashuvlari mavjud:

- Texnologik innovatsiyalar: Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish yoki mavjud texnologiyalarni takomillashtirish orqali amalga oshiriladigan innovatsiyalar. Bunga yangi materiallar, yuqori samarali texnologiyalar yoki avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish kiradi.

- Ma'lumot va raqamli innovatsiyalar: Raqamli texnologiyalarni, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), IoT (Internet of Things)[3]kabi yangiliklarni loyihaga kiritish orqali amalga oshiriladi.

- Jarayon innovatsiyalari: Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan innovatsiyalar. Bunga ishlab chiqarish liniyalarini avtomatlashtirish, yangi ishchi metodlarni qo'llash yoki yangi xizmat ko'rsatish modellari kiradi.

- Biznes modelining innovatsiyalari: Yangi biznes modelini ishlab chiqish, mijozlar uchun yangi qiymat yaratish va kompaniyaning daromadini oshirishga qaratilgan yondashuv. Bunga abonentlik modeli, yangi savdo kanallari yoki yangi hamkorlik shakllari kiradi. Hozirgi kunda innovatsiyalar iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikning asosiy omillaridan biridir. Loyihalar doirasida innovatsiyalarni jalb etish jarayonlari tashkilotlar va kompaniyalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni zamon talablariga moslaydi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada innovatsiyalarni loyihalarga jalb etish jarayonlari, ularning asosiy qadamlarini va strategiyalarini ko'rib chiqamiz.

Innovatsiyalarni jalb etishning ahamiyati. Innovatsiyalarni loyihalarda jalb etish bir qator afzalliklarga ega:

1. Raqobatbardoshlikni oshirish: Innovatsiyalar yangi mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarni yaratishga yordam beradi, bu esa tashkilotni raqobatchilaridan ajratib turadi.

2. Samaradorlikni oshirish: Yangi texnologiyalarni joriy etish jarayonlarni samarali va iqtisodiy qilish imkon beradi.

3. Mijozlar ehtiyojlarini qondirish: Innovatsion yondashuvlar mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini beradi.

4. Yangi bozorlarni kashf etish: Innovatsiyalar yangi bozor segmentlariga kirish va ularda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi.

Loyihalarda innovatsiyalarni jalb etish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Ehtiyojlarni tahlil qilish: Loyihaga kirishishdan avval, bozor va mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish kerak. Bu bosqichda, loyiha jamoasi mijozlar fikrlarini, bozorda mavjud tendentsiyalarni va raqobatchilarni o'rganishi zarur.

2. G'oyalarni ishlab chiqish: Innovatsiyalarni jalb etish uchun yangi g'oyalar yaratish zarur. Bu jarayon brainstorming, mijozlar bilan muloqot qilish va tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. G'oyalarni shakllantirishda jamoaning fikrlarini va tajribasini hisobga olish muhimdir.

3. Sinov va ishlab chiqish: Yangi g'oyalar sinovdan o'tkazilishi kerak. Bu bosqichda prototiplar yaratiladi va ularning samaradorligi sinovdan o'tkaziladi. Agar g'oya muvaffaqiyatli bo'lsa, loyiha davom ettiriladi.

4. Joriy qilish: Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun loyihani rejalashtirish va amalga oshirish kerak. Bunda tashkilot ichida o'zgarishlarni boshqarish ham muhim rol o'ynaydi.

5. Monitoring va baholash: Innovatsiya joriy etilgandan so'ng, uning samaradorligini baholash va kerak bo'lganda tuzatishlar kiritish lozim. Bu jarayon mijozlar fikr-mulohazalari va bozor tahlillari asosida amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar

Innovatsiyalarni loyihalarga jalb etish jarayonlari zamonaviy biznesda muvaffaqiyat uchun muhim vosita hisoblanadi. Tashkilotlar yangi g'oyalar va texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'z raqobatbardoshligini oshirishi va mijozlar ehtiyojlariga mos keladigan mahsulotlar va xizmatlar taklif etishi mumkin. Samarali innovatsion jarayonlar esa tashkilotlarni o'sish va rivojlanish yo'lida yanada bir qadam oldinga olib chiqadi. Yangi texnologiyalarni joriy etish nafaqat ishlab chiqarish tizimlarini yangilaydi, balki kundalik hayotimizni ham o'zgartiradi. Misol uchun, raqamli texnologiyalar sohasidagi yangiliklar odamlar orasidagi aloqa, axborot almashish va bilim olish jarayonlarini tezlashtirib, hayotni yengillashtiradi. Ushbu jarayonlar ta'lim, sog'liqni saqlash va transport kabi sohalarda innovatsiyalarni qo'llash orqali o'z ifodasini topmoqda. Xulosa qilib aytganda, innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va hayot sifatini oshirishda ajralmas bir elementdir. Uning yaratgan imkoniyatlari va yechimlari jamiyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va kelajakdagi yutuqlarimizni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH) VA BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI**, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/16, 33-37.

2. G Shamsiddinov, „iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, and Durdona Turayeva." GLOBAL IQLIM O „ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHNING ZAMONAVIY, INNOVATSION USULLARI." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024, 103-106.
3. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, KLIENT-SERVER ARXITEKTURALARI, Наука и инновация, 2025/3/25, 113-119.
4. G'iyosjon Shamsiddinov, Gulandom Raxmatova, Zilola Rajapova, VIRTUAL BORLIQ VA UNING ASOSIY TUSHINCHALARI, Наука и инновация, 2025/3/24, 52-58.
5. G'iyosjon Shamsiddinov, Barchin Ro'ziqulova, Laziza Inatillayeva, BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/10/21, 39-41.
6. Л Турсунова, С Жураев, ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024, 35-37.
7. DO Israilovich, TL Komilovna, Optimization of Validity of Text Information Based On Mechanisms with Soft Clustering, European journal of innovation in nonformal education, 2022, 369-373.
8. Ro'Ziqulova Marjona Jonuzoq Qizi, Tursunova Luiza Komilovna, INFORMATIKA FANINI O 'QITISHDA SAMARALI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR, Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2025, 63-66.
9. Луиза Комиловна Турсунова, Гиесжон Шамсиддинов, Образ педагога в информационном мире, "Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi" mavzusidagi xalqaro ilmiy Anjuman, 2024/2/23, 421-426.
10. Зебинисо Абдулхакимовна Абдувалиева, Турсунова Луиза Комиловна, Математический аппарат методов принятия решения документооборота в ВУЗах, 2022, 286-289.
11. Alijon Muhammadiyev, Shukurullo Aliqulov, PROSPECTS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION, Наука и технология в современном мире, 2024, 90-92.
12. Sh Aliqulov, M. Yaxiyaxonova. Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani Qo'llashning ta'lim ..., 2024.
13. ALIQULOV SHUKURULLO FAYZULLO, TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA VOSITALARINI QO'LLASH, JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS VOLUME – 45 | ISSUE – 2 January – 2024, 2024/1/2, 61-65.
14. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Iqtidorli talabalarni fan, ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiya qilishning zamonaviy usullari, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 54-57.
15. J.Toshpo'lotova M.O'ktamov, Sh.Aliqulov, Hozirgi globallashuv jarayonida intellektual yoshlarning ijtimoiy rivojlanish davridagi roli, Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rn, 2024/4/29, 40-43.
16. Mavlonov Sh Sh, FB Jurayeva, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MINTAQALAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, Экономика и социум, 2024, 234-238.

17. Feruza Jo'rayeva, Sarvinoz Xurramova, MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARI TAHLILI, Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 2024/12/9, 8-12.
18. Feruza Jo'rayeva, TA'LIM JARAYONIDA AQL XARITALARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI, Молодые ученые, 2024/4/8, 159-166.
19. Feruza Jo'rayeva, Gulhayo Hamdamova, MEDIA SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYATIMIZ HAYOTIDAGI AHAMIYATI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/3/31, 31-35.
20. Tuxtanazarova N. A Davletov A. J. , Mavlanberdiyev S. F., Norqulova Z. N., Jurayeva F. B., Jurayeva D. Sh, STUDY RATIO OF MOISTURE AND BIOME FOR EXTREME SITUATION, ВЫСШАЯ ШКОЛА• №23 / 2021, 2021/12/23, 34-36.
21. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "CHET ELDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING INKLYUZIV TA'LIMI." Молодые ученые 3.8 (2025): 160-165.
22. Nuriddinova, Nozima, and Dinora Norboboyeva. "O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INKLYUZIV TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI." Наука и инновация 3.8 (2025): 146-151.
23. Salimova, Marjona, and Nozima Nuriddinova. "AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY ILMIY FANLARNI O'QITISHDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISHNING INNOVATION USULLARI." Наука и инновация 2.38 (2024): 161-164.
24. Nuriddinova, Sevinch, and Nozima Nuriddinova. "Increasing the effectiveness of learning biology lessons by means of interactive games and interactive methods." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.7 (2024): 288-290.

INNOVATIVE
ACADEMY